



TALIS xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak o'qituvchilarning professional kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari

Boymanova Muxlisa Ismoil qizi –

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

E-mail: muxliska7090@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-9549-0333>

Annotatsiya. Mazkur maqolada TALIS (Teaching and Learning International Survey) xalqaro baholash dasturining bo'lajak o'qituvchilarning professional kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, TALIS-2024 tadqiqoti natijalari asosida O'zbekiston ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba, OECD tavsiyalari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'rganildi. Maqolada pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash, raqamli va sun'iy intellekt kompetensiyalarini rivojlantirish, mentorlik institutini takomillashtirish hamda uzluksiz malaka oshirish tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: TALIS, OECD, professional kompetentlik, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik ta'lim, kasbiy rivojlanish, raqamli kompetensiya, sun'iy intellekt, mentorlik, malaka oshirish.

Современные тенденции развития профессиональной компетентности будущих учителей на основе международной программы оценки TALIS

Аннотация. This article analyzes the role of the Teaching and Learning International Survey (TALIS) in the development of the professional competence of prospective teachers from a scientific and theoretical perspective. Based on the results of the TALIS 2024 survey, the priority directions for developing teachers' professional competence in the education system of Uzbekistan are identified. The study examines international experience, OECD recommendations, and modern pedagogical approaches. The article also proposes scientific and practical recommendations aimed at ensuring teachers' professional development, enhancing digital and artificial intelligence competencies, improving the mentoring system, and modernizing the continuous professional development system.

Ключевые слова: TALIS, OECD, professional competence, prospective teacher, teacher education, professional development, digital competence, artificial intelligence, mentoring, continuous professional development.

Modern trends in developing the professional competence of future teachers based on the TALIS international assessment programme

Annotation. В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализирована роль международного исследования TALIS (Teaching and Learning International Survey) в развитии профессиональной компетентности будущих педагогов. На основе результатов исследования TALIS-2024 определены приоритетные направления развития профессиональной компетентности педагогов в системе образования Узбекистана. В ходе исследования были изучены международный опыт, рекомендации ОЭСР (OECD), а также современные педагогические подходы. В статье разработаны научно-практические рекомендации, направленные на обеспечение профессионального развития педагогов, развитие цифровых компетенций и компетенций в области искусственного интеллекта, совершенствование института наставничества и модернизацию системы непрерывного повышения квалификации.

Keywords: TALIS, OECD, professional competence, prospective teacher, teacher education, professional development, digital competence, artificial intelligence, mentoring, professional development.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimining samaradorligi ko'p jihatdan pedagoglarning kasbiy kompetentligiga bog'liq. Zamonaviy maktab nafaqat chuqur nazariy bilimga ega, balki innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan, tanqidiy fikrlaydigan, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanadigan hamda o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga oladigan o'qituvchini talab etmoqda. So'nggi yillarda xalqaro baholash dasturlarining ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Jumladan, OECD tomonidan amalga oshirilayotgan TALIS xalqaro tadqiqoti o'qituvchilarning ish sharoitlari, kasbiy rivojlanishi, pedagogik faoliyati hamda maktab boshqaruvi tizimini baholash imkonini beruvchi muhim xalqaro mexanizm hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi siyosiy qarorlarni ishlab chiqishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning TALIS-2024 xalqaro tadqiqotida ilk bor ishtirok etishi mamlakatimiz ta'lim tizimini xalqaro mezonlar asosida baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda pedagoglar kasbiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston o'qituvchilarining raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish darajasi OECD davlatlari o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori ekani qayd etilgan. Shu bilan birga, texnik infratuzilmani rivojlantirish, inklyuziv ta'lim kompetensiyalarini kuchaytirish hamda individual ta'limni tashkil etish bo'yicha tizimli ishlarni davom ettirish zarurligi ta'kidlangan. Mazkur maqolaning maqsadi TALIS xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak o'qituvchilarning professional kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

TALIS xalqaro tadqiqotiga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining professional kompetentligi zamonaviy ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur yo'nalishda OECD tomonidan amalga oshirilayotgan TALIS tadqiqotlari pedagoglarning kasbiy faoliyati, ish muhiti, kasbiy

rivojlanishi, pedagogik amaliyoti, maktab boshqaruvi va o'qituvchilarning kasbiy qarashlarini xalqaro miqyosda qiyosiy o'rganish imkonini beradi. TALISning muhim jihati shundaki, u bevosita o'qituvchining bilimini yoki o'quvchilar kompetensiyasini test orqali baholashdan ko'ra, pedagogik faoliyatni amalga oshirish shart-sharoitlari va kasbiy rivojlanish jarayonlarini kompleks o'rganishga yo'naltirilgan. TALIS tadqiqotining turli sikllari natijalari pedagoglarning professional rivojlanishi uzluksiz va tizimli xarakterga ega bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Xususan, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida malaka oshirish, hamkasblar bilan tajriba almashish, pedagogik refleksiya, maktabdagi hamkorlik muhiti va rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchining professional kompetentligini faqat oliy ta'lim jarayonida shakllanadigan bilim va ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki kasbiy faoliyat davomida muntazam takomillashib boradigan integrativ sifat sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

OECDning TALIS-2024 natijalari zamonaviy o'qituvchidan raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt vositalari, inklyuziv ta'lim, individual ta'lim yondashuvlari va innovatsion pedagogik metodlardan samarali foydalanish kompetensiyalarini talab etayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sifatli ta'limni ta'minlashda malakali pedagoglarning yetishmasligi, vaqt cheklovlari va infratuzilmaviy imkoniyatlarning cheklanganligi kabi omillar ham dolzarb muammolar sifatida qayd etilgan. Mavjud ilmiy manbalarda o'qituvchining adaptiv pedagogik faoliyati ham professional kompetentlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Xususan, L. Corno o'qitish jarayonini o'quvchilarning individual ehtiyojlari va vaziyatga mos ravishda moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik vaziyatni tahlil qilish, mos pedagogik qaror qabul qilish va ta'lim strategiyasini o'zgartirish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot TALIS xalqaro tadqiqoti va uning natijalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning professional kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini aniqlashga yo'naltirildi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogik jarayonni tizimli o'rganish, xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish va mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish tamoyillari tashkil etdi. Tadqiqotda, avvalo, tizimli tahlil metodi qo'llanilib, professional kompetentlikning tarkibiy qismlari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi pedagogik va tashkiliy omillar hamda TALIS tadqiqotida o'rganiladigan asosiy yo'nalishlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Mazkur metod orqali kasbiy rivojlanish, pedagogik amaliyot, maktab boshqaruvi, mentorlik, raqamli kompetensiya va sun'iy intellektidan foydalanish kabi omillarning professional kompetentlik bilan aloqadorligi aniqlandi. Qiyosiy tahlil metodi TALISning turli sikllari, OECD mamlakatlari tajribasi hamda O'zbekiston ta'lim tizimidagi mavjud holatni solishtirish uchun qo'llanildi. Xususan, TALIS-2018 va TALIS-2024 natijalari asosida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, ish sharoitlari, raqamli texnologiyalardan foydalanishi va ta'lim jarayonidagi dolzarb muammolar qiyosiy o'rganildi. Ilmiy umumlashtirish metodi orqali xalqaro tajriba va ilmiy manbalarda ilgari surilgan qarashlar umumlashtirilib, O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning professional kompetentligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Shuningdek, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish metodi TALIS-2024 doirasida keltirilgan ko'rsatkichlarni mazmunan tahlil qilish, ularning O'zbekiston ta'lim tizimi uchun pedagogik ahamiyatini aniqlashda qo'llanildi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari TALIS xalqaro tadqiqoti bo'lajak o'qituvchilarning professional kompetentligini rivojlantirish uchun muhim diagnostik va metodologik manba bo'la olishini ko'rsatdi. TALIS natijalari o'qituvchining kasbiy kompetentligini faqat individual bilim va ko'nikmalar bilan cheklamasdan, uning ish muhiti, kasbiy rivojlanishi, pedagogik amaliyoti,

maktab boshqaruvi va hamkasblar bilan professional hamkorligi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning TALIS-2024 tadqiqotida ilk bor ishtirok etishi milliy ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni xalqaro mezonlar asosida tahlil qilish uchun yangi imkoniyat yaratdi. Tadqiqot materiallarida O'zbekiston o'qituvchilarining o'rtacha yoshi 39 yosh ekanligi qayd etilgan bo'lib, bu pedagogik kadrlarning nisbatan yosh tarkibga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur holat oliy pedagogik ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari va innovatsion metodlarni chuqur o'zlashtirgan mutaxassislarni tayyorlash uchun muhim imkoniyat yaratadi. Biroq yosh pedagoglarning kasbiy moslashuvi va tajribali mutaxassislar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Tadqiqotning muhim natijalaridan biri O'zbekiston pedagoglarining raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish faolligi bilan bog'liq. Manbada keltirilishicha, O'zbekiston o'qituvchilarining 62 foizi sun'iy intellekt vositalaridan darslarni rejalashtirish, o'quv materiallarini tayyorlash va mavzularni tahlil qilishda foydalanmoqda. Bu ko'rsatkich pedagogik faoliyatning raqamlashtirilishi va sun'iy intellekt texnologiyalarining o'qituvchi faoliyatiga tobora chuqur kirib borayotganini ko'rsatadi. Biroq natijalar sun'iy intellektdan foydalanishning o'zi yetarli emasligini ham ko'rsatadi. AI vositalaridan maxsus ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar bilan ishlash, o'quv materiallarini individuallashtirish va ota-onalar bilan samarali kommunikatsiyani tashkil etishda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida raqamli kompetensiyani oddiy texnik ko'nikma sifatida emas, balki pedagogik vazifani raqamli vositalar yordamida samarali hal qilish kompetensiyasi sifatida shakllantirish muhim.

TALIS-2024 natijalari yana bir muhim tendensiyani — inklyuziv ta'lim kompetensiyasini kuchaytirish zaruratini ko'rsatmoqda. Xususan, xalqaro miqyosda maxsus ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar bilan ishlashga qodir malakali o'qituvchilar yetishmasligi sifatli ta'limni ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida qayd etilgan. Manbada OECD ta'lim tizimlari bo'yicha o'rtacha 33 foiz o'qituvchi bunday muammoning mavjudligini bildirgan maktablarda faoliyat yuritishi ko'rsatilgan.

Mazkur natija bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda inklyuziv pedagogika, differensial ta'lim, individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalash va turli ta'lim ehtiyojlariga mos pedagogik strategiyalarni tanlash kompetensiyalarini kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

Tadqiqot natijalari asosida professional kompetentlikni rivojlantirishning o'zaro bog'liq besh asosiy tendensiyasi aniqlandi:

1. Raqamli transformatsiya – bo'lajak o'qituvchilarning raqamli pedagogika va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish.
2. Sun'iy intellekt kompetensiyasi – AI vositalaridan ta'limni rejalashtirish, individuallashtirish, materiallar yaratish va pedagogik tahlilda mas'uliyatli foydalanishni o'rgatish.
3. Inklyuziv-professional kompetentlik – turli ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlikni shakllantirish.
4. Mentorlik va kasbiy hamkorlik – yosh pedagoglarning kasbiy moslashuvini tajribali o'qituvchilar ko'magida tashkil etish.
5. Uzluksiz kasbiy rivojlanish – bo'lajak o'qituvchida refleksiv faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarni muntazam yangilash ehtiyojini shakllantirish.

Mazkur tendensiyalarni oliy pedagogik ta'lim mazmuniga integratsiya qilish natijasida bo'lajak o'qituvchining professional kompetentligini bilimga asoslangan modeldan amaliy-refleksiv va innovatsion modelga o'tkazish imkoniyati yuzaga keladi. Bunda TALIS ko'rsatkichlari pedagogik ta'lim mazmunini takomillashtirish uchun xalqaro indikatorlar tizimi sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, pedagogika oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalariga TALIS, PISA, TIMSS va PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlarning

mazmuni va indikatorlariga bag'ishlangan maxsus modullarni kiritish, raqamli pedagogika va sun'iy intellekt bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni kengaytirish, mentorlikka asoslangan kasbiy amaliyotni kuchaytirish hamda talabalarning refleksiv faoliyatini muntazam baholab borish maqsadga muvofiq. Natijalar TALISni faqat xalqaro monitoring vositasi sifatida emas, balki bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmuni va kasbiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish uchun ilmiy-analitik asos sifatida foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim tizimida xalqaro mezonlarga mos, raqamli va innovatsion muhitda ishlashga qodir, inklyuziv ta'limni tashkil eta oladigan hamda o'z kasbiy rivojlanishini mustaqil boshqara oladigan pedagoglarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, TALIS xalqaro baholash dasturi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash va rivojlantirishning samarali xalqaro mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot nafaqat pedagoglarning kasbiy rivojlanish darajasini, balki ta'lim muassasalaridagi ish muhiti, maktab boshqaruvi, mentorlik, kasbiy hamkorlik hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarning holatini kompleks baholash imkonini beradi. TALIS-2024 natijalari O'zbekiston ta'lim tizimida bir qator ijobiy tendensiyalar mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan, pedagoglarning kasbdan qoniqish darajasi yuqori, o'qituvchilar orasida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish sur'ati OECD davlatlari o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoridir. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim, individual yondashuv, sinfni boshqarish hamda mentorlik tizimini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar zarur. Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi: pedagogika OTMlari o'quv rejasiga TALIS xalqaro tadqiqoti bo'yicha maxsus modul kiritish; bo'lajak o'qituvchilarning raqamli va sun'iy intellekt kompetensiyalarini rivojlantirish; yosh pedagoglar uchun mentorlik institutini takomillashtirish; xalqaro baholash dasturlariga tayyorlovchi amaliy kurslarni tashkil etish; refleksiv faoliyat va uzluksiz kasbiy rivojlanish madaniyatini kuchaytirish; pedagoglarning professional kompetentligini xalqaro indikatorlar asosida baholash tizimini joriy etish. Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda O'zbekistonning xalqaro baholash dasturlaridagi natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muslimov N.A. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent, 2021.
2. Sharipov Sh.S. Pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari. – Toshkent, 2021.
3. Xodjayev B.X. Pedagogik kompetensiyaviy yondashuv: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2022.
4. Inoyatov U.I. Ta'lim sifatini ta'minlash va pedagog kadrlar tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari. – Toshkent, 2022.
5. OECD. TALIS 2018 Results (Volume II): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. – Paris: OECD Publishing, 2020.
6. OECD. The State of School Education: One Year into the COVID Crisis. – Paris: OECD Publishing, 2021.
7. OECD. Education at a Glance 2022: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2022.
8. OECD. Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. – Paris: OECD Publishing, 2023.